

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOATLASHUVNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	9
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
ALIGNING NATIONAL AND INTERNATIONAL UNIVERSITY RANKING INDICATORS: A CROSSWALK METHODOLOGY.....	16
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi	
O'ZBEKISTONDA ENERGETIKA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	28
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	34
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
SANOAT KORXONASINING ATROF-MUHIT VA AHOLI SOG'LIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	40
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI	44
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI

Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. O'zbekiston tijorat banklarida chakana bank xizmatlari rivojlanishining zamonaviy holati kompleks iqtisodiy tahlil asosida baholangan. Tadqiqot davomida 2021–2025-yillar mobaynida bank kartalari emissiyasi, POS-terminallar tarmog'i, naqdsiz to'lovlar hajmi hamda raqamli bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari o'rganildi. Shuningdek, tijorat banklarida chakana xizmatlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimlashtirildi hamda ularning bank tizimi samaradorligi va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi o'rni tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, raqamli transformatsiyani jadallashtirish hamda mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari tijorat banklari faoliyatini strategik boshqarishda, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilishda hamda raqamli moliyaviy infratuzilmani rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, chakana bank xizmatlari, raqamli bank xizmatlari, mobil banking, internet banking, bank kartalari, POS-terminallar, naqdsiz to'lovlar, moliyaviy inklyuziya, FinTech, raqamli transformatsiya, bank innovatsiyalari.

Аннотация. В статье на основе комплексного экономико-статистического анализа оценено современное состояние развития розничных банковских услуг в коммерческих банках Узбекистана. Исследованы динамика эмиссии банковских карт, сети POS-терминалов, объёма безналичных платежей и тенденции развития цифровых банковских услуг в 2021–2025 годах. Проведено экспертно-сравнительное сопоставление цифровых услуг отдельных коммерческих банков. Выявлены основные тенденции развития розничного банкинга и обоснованы предложения по повышению эффективности платёжной инфраструктуры, расширению дистанционных услуг и совершенствованию клиентоориентированных банковских продуктов.

Ключевые слова: коммерческие банки, розничные банковские услуги, цифровые банковские услуги, банковские карты, POS-терминалы, безналичные платежи, мобильный банкинг, финансовая доступность, FinTech, цифровая трансформация.

Abstract. This article evaluates the current development of retail banking services in Uzbekistan's commercial banks through a comprehensive economic and statistical analysis. It examines trends in bank-card issuance, POS-terminal infrastructure, cashless payment volumes, and digital banking services during 2021–2025. The digital service capabilities of selected commercial banks are compared using an expert-comparative approach. The study identifies the main development trends and proposes measures to improve payment-infrastructure efficiency, expand remote services, and strengthen customer-oriented retail banking products.

Keywords: commercial banks, retail banking services, digital banking services, bank cards, POS terminals, cashless payments, mobile banking, financial inclusion, FinTech, digital transformation.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank sektorining faoliyatiga tub o'zgarishlar kiritmoqda. Ayniqsa, chakana bank xizmatlari sohasida masofaviy bank xizmatlari, mobil ilovalar, elektron to'lov tizimlari, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va ochiq bank (Open Banking) texnologiyalarining joriy etilishi mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Natijada tijorat banklari faoliyatida daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlarni kengaytirish imkoniyatlari sezilarli darajada ortmoqda.¹

Xalqaro moliya institutlari tadqiqotlari ham chakana bank xizmatlari bank tizimining barqaror rivojlanishidagi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Xususan, Jahon banki raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishini va moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishini

1 World Bank. *Digital Financial Services*. Washington, D.C.: World Bank Group, 2020.



ta'kidlaydi. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) esa raqamli bank xizmatlari operatsion samaradorlikni oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda moliyaviy tizimning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishini qayd etadi.² Bank for International Settlements (BIS) tadqiqotlarida tezkor to'lov tizimlari va zamonaviy to'lov infratuzilmasining rivojlanishi chakana bank xizmatlari samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida baholangan.³

O'zbekiston Respublikasida ham bank tizimini modernizatsiya qilish, bank xizmatlarini raqamlashtirish hamda aholiga ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.⁴ So'nggi yillarda bank kartalari sonining oshishi, mobil bank ilovalarining ommalashuvi, tezkor to'lov tizimlari, QR-to'lovlar va masofaviy identifikatsiya xizmatlarining keng joriy etilishi chakana bank xizmatlari bozorining jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi.⁵

Shu bilan birga, chakana bank xizmatlari rivojlanishining zamonaviy holatini kompleks iqtisodiy-statistik tahlil qilish, asosiy rivojlanish omillarini aniqlash va ularning bank tizimi samaradorligiga ta'sirini baholash masalalari hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Mavjud ilmiy ishlarda ko'proq nazariy masalalar yoritilgan bo'lsa, O'zbekiston tijorat banklarida 2021-2025-yillar davomida kuzatilgan o'zgarishlarni kompleks baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. O'zbekiston tijorat banklarida chakana bank xizmatlari rivojlanishining zamonaviy holatini tahlil qilish, asosiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda ularni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chakana bank xizmatlari nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy tadqiqotlar bank tizimining evolyutsiyasi bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib bormoqda. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda chakana bank xizmatlari banklarning uzoq muddatli barqarorligi, mijozlar bazasini kengaytirish va daromadlarni diversifikatsiya qilishning muhim omili sifatida baholanadi. Frederic Mishkin banklarning iqtisodiy tizimdagi vositachilik funksiyasini tahlil qilar ekan, chakana bank xizmatlari moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va aholi jamg'armalarini iqtisodiyotga jalb qilishda muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi.⁶ Uning fikricha, bank xizmatlarining raqamlashtirilishi xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Joseph Sinkey tijorat banklari menejmentiga bag'ishlangan tadqiqotlarida chakana bank xizmatlarini bank rentabelligi va risklarni boshqarish bilan uzviy bog'liq holda o'rganadi.⁷ Muallifning fikricha, raqamli xizmatlarning rivojlanishi operatsion samaradorlikni oshirishi bilan birga yangi texnologik va kiberxavfsizlik risklarini ham yuzaga keltiradi. Shu sababli banklarda innovatsiyalar va risklarni boshqarish o'rtasida muvozanatni ta'minlash zarur. Allen Berger, Ross Levine hamda Thorsten Beck tadqiqotlarida bank tizimi rivojlanishi iqtisodiy o'sish va moliyaviy inkluziya bilan bevosita bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslangan.⁸ Ularning fikricha, zamonaviy chakana bank xizmatlari aholi va biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Jahon bankining **Global Findex** tadqiqotlari mobil bank xizmatlari va raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi bank xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirayotganini ko'rsatadi. IMF va BIS hisobotlarida esa tezkor to'lov tizimlari, raqamli identifikatsiya va FinTech texnologiyalarining bank sektoridagi transformatsiya jarayonlarini jadallashtirayotgani qayd etilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar Sh. Abdullayeva, B.Yu. Xodiyev, Z. Mamadiyarov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan bank xizmatlari bozorini rivojlantirish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va banklarning raqobatbardoshligini oshirish masalalari yoritilgan.⁹ Tadqiqotlar bank xizmatlarining nazariy va tashkiliy jihatlarini ochib bergan bo'lsa-da, chakana bank xizmatlari rivojlanishining zamonaviy holatini statistik ko'rsatkichlar, dinamik qatorlar va qiyosiy baholash asosida kompleks tahlil qilish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Muallifning fikricha, mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyati chakana bank xizmatlarining nazariy asoslarini yoritishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini statistik, trend va ekspert-qiyosiy usullar asosida kompleks baholash bo'yicha ilmiy izlanishlar cheklangan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni

2 Khera P., Ng S., Ogawa S., Sahay R. *Is Digital Financial Inclusion Unlocking Growth?* IMF Working Paper, 2021.

3 Aurazo J., Franco C. *Fast Payment Systems and Financial Inclusion*. BIS Quarterly Review, 2024.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni.

5 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank kartalari, POS terminallari va POS to'lovlari bo'yicha statistik ma'lumotlar, 2025., O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To'lov tizimlarini rivojlantirish, QR-online, tezkor to'lovlar, mobil va kontaktsiz to'lov xizmatlariga oid materiallar.

6 Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. 13th ed. Pearson, 2022.

7 Sinkey J.F. *Commercial Bank Financial Management in the Financial-Services Industry*. 6th ed. Prentice Hall, 2002. 696 p.

8 Berger A.N., Hasan I., Klapper L.F. *Further Evidence on the Link between Finance and Growth: An International Analysis of Community Banking and Economic Performance* // Journal of Financial Services Research. – 2004. – Vol. 25. – P. 169–202.

9 Abdullayeva Sh.Z. *Bank ishi: darslik*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. – 732 b., Mamadiyarov Z.A., Maxmudova M., Kurbonbekova M. *Bank ishi: darslik*. – Toshkent, 2021.

to'ldirishga qaratilgan.

O'zbekiston tijorat banklarida chakana bank xizmatlari rivojlanishining zamonaviy holatini baholashda tizimli yondashuv, qiyosiy va iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar, guruhlash, induksiya va deduksiya, grafik hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank kartalari, POS-terminallar, to'lov tizimlari va masofaviy bank xizmatlariga oid rasmiy statistik ma'lumotlari, tijorat banklarining ochiq axborotlari, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Xalqaro hisob-kitoblar banki materiallari tashkil etdi. 2021–2025-yillardagi ko'rsatkichlar mutlaq o'zgarish, o'sish sur'ati va infratuzilmadan foydalanish intensivligi bo'yicha baholandi. Banklar kesimidagi raqamli xizmatlar xizmatning mavjudligi va funksional qamroviga tayangan ekspert-qiyosiy usulda tizimlashtirildi. Yillik kuzatuvlar soni ko'p omilli regressiya uchun yetarli bo'lmagani sababli ilmiy xulosalar tavsifiy trend va qiyosiy tahlil natijalariga asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi besh yil davomida O'zbekiston bank tizimida chakana bank xizmatlari rivojlanishi yuqori sur'atlarda davom etdi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, bank xizmatlarining masofaviy shakllarini kengaytirish, mobil ilovalar funktsionalligining oshirilishi hamda to'lov infratuzilmasining takomillashuvi natijasida aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi sezilarli oshdi.

Ayniqsa, bank kartalari emissiyasi, mobil banking foydalanuvchilari soni, POS-terminallar orqali amalga oshirilayotgan naqdsiz to'lovlar hajmi hamda bankomatlar tarmog'ining kengayishi chakana bank xizmatlarining rivojlanishida asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil davomida bank kartalari soni va POS-terminallar orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi barqaror o'sishni davom ettirdi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda chakana bank xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi, 2021–2025-yillar¹⁰

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
Muomaladagi bank kartalari, mln dona	27,1	34,2	46,2	62	68,2
POS terminallar, ming dona	433	434	429	426	430
POS orqali to'lovlar, trln so'm	–	–	254,7	326,7	460,3

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2021–2025-yillar davomida muomaladagi bank kartalari soni qariyb **2,5 baravar** oshgan. Shu davrda POS-terminallar soni deyarli barqaror saqlanib qolgan bo'lsa-da, ular orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi keskin o'sdi. Bu holat mavjud infratuzilmadan foydalanish samaradorligi ortganini va aholining naqdsiz hisob-kitoblarga bo'lgan ishonchi kuchayganini anglatadi. Bundan tashqari, tijorat banklari mobil ilovalarini takomillashtirish, QR-to'lovlar, tezkor to'lov tizimlari va masofaviy identifikatsiya xizmatlarini joriy etish hisobiga chakana xizmatlarning sifati ham sezilarli yaxshilandi.

Tijorat banklari kesimida chakana bank xizmatlari rivojlanishining tahlili

So'nggi yillarda O'zbekiston tijorat banklari o'rtasida chakana bank xizmatlari bozorida raqobat sezilarli darajada kuchaydi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida banklar mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, yangi mahsulotlarni joriy etish hamda xizmatlarni masofaviy shaklda taqdim etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Natijada chakana bank xizmatlari banklarning asosiy daromad manbalaridan biriga aylanib bormoqda.

Davlat ulushi mavjud tijorat banklarida so'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari faol amalga oshirilgan bo'lsa, xususi banklar tomonidan innovatsion mobil ilovalar, onlayn kreditlash, QR-to'lovlar va elektron hamyon xizmatlari jadal rivojlantirildi. Ayniqsa, Kapitalbank, Hamkorbank, Anorbank va TBC Bank Uzbekistan kabi banklar chakana xizmatlar bozorida raqamli mahsulotlar orqali raqobat ustunligini shakllantirishga muvaffaq bo'ldi (2-jadval).

10 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Muomaladagi bank kartalari, o'rnatilgan POS terminallari hamda POS terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar, 2021–2025-yillar.



2-jadval

O'zbekistonning ayrim tijorat banklarida chakana bank xizmatlarining rivojlanish yo'nalishlari¹¹

Tijorat banki	Mobil ilova	Onlayn kredit	Onlayn omonat	QR to'lov	Masofaviy identifikatsiya	Jami ball va daraja
Kapitalbank	+++	+++	+++	+++	+++	15 ball - Yuqori
Hamkorbank	+++	++	+++	+++	++	13 ball - Yuqori
TBC Bank Uzbekistan	+++	+++	++	++	+++	13 ball - Yuqori
Anorbank	+++	+++	++	+++	+++	14 ball - Yuqori
Agrobank	++	++	++	++	++	10 ball - O'rta
SQB	++	++	++	++	++	10 ball - O'rta
Asakabank	++	++	++	++	++	10 ball - O'rta
Xalq banki	++	+	++	++	+	8 ball - Past

Jadvalda +++ - 3 ball, xizmat to'liq va keng funksional; ++ - 2 ball, xizmat mavjud, biroq ayrim funksiyalari cheklangan; + - 1 ball, xizmat boshlang'ich yoki cheklangan darajada. Besh mezon bo'yicha maksimal natija 15 ballni tashkil etadi: 13–15 ball - yuqori, 9–12 ball - o'rta, 5–8 ball - past daraja. Baholash banklarning maqolada foydalanilgan ochiq axborotlari asosida muallif tomonidan amalga oshirilgan ekspert-qiyosiy baholash bo'lib, rasmiy reyting hisoblanmaydi.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, chakana bank xizmatlarining rivojlanish darajasi banklarning raqamli transformatsiya strategiyasi bilan bevosita bog'liq. Xususiyl banklarda innovatsion xizmatlar ko'lami kengroq bo'lib, mobil ilovalar orqali kredit ajratish, omonat ochish, kommunal va davlat xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirish, valyuta ayirboshlash hamda xalqaro pul o'tkazmalarini bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan. Davlat ulushi mavjud banklarda esa raqamli xizmatlar bosqichma-bosqich takomillashtirilayotgan bo'lsa-da, ayrim xizmatlarning funksional imkoniyatlari xususiyl banklarga nisbatan cheklangan. Shu bilan birga, ushbu banklar keng filial tarmog'i va yirik mijozlar bazasi hisobiga chakana xizmatlar bozorida muhim o'rinni egallab kelmoqda.

Muallifning fikricha, tijorat banklari o'rtasidagi raqobat endilikda filiallar soni bilan emas, balki **raqamli xizmatlarning sifati, tezkorligi, funksionalligi va mijozlar tajribasi** bilan belgilanmoqda. Shu sababli banklarning raqobatbardoshligini baholashda mobil ilovalar imkoniyatlari, masofaviy identifikatsiya tizimi, sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar va mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligi asosiy mezonlardan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Naqdsiz to'lovlar rivojlanishining tahlili

O'zbekistonda chakana bank xizmatlari rivojlanishining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri naqdsiz hisob-kitoblar hajmining o'sishi hisoblanadi. So'nggi yillarda bank kartalari orqali amalga oshirilayotgan to'lovlar, QR-kod asosidagi hisob-kitoblar va tezkor to'lov tizimlarining rivojlanishi natijasida iqtisodiyotda naqdsiz to'lovlar ulushi sezilarli darajada oshdi. 2023–2025-yillar davomida POS-terminallar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi **254,7 trln so'mdan 460,3 trln so'mga**, ya'ni **80,7 foizga** oshdi. Bu o'sish bank kartalari sonining ko'payishi bilan bir qatorda, aholining raqamli to'lov vositalariga bo'lgan ishonchi ortganligini ham ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval

Naqdsiz to'lovlar rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2023	2024	2025	O'sish (%)
POS to'lovlari (trln so'm)	254,7	326,7	460,3	80,7
Bank kartalari (mln dona)	46,2	62	68,2	47,6

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, POS terminallar soni deyarli o'zgarmagan bo'lsa-da, ular orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarning hajmi keskin oshgan. Bu esa mavjud infratuzilmadan foydalanish samaradorligi ortganini va har bir terminalga to'g'ri keladigan operatsiyalar soni ko'payganini anglatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda chakana bank xizmatlari rivojlanishining asosiy drayverlari sifatida **raqamli bank texnologiyalari, mobil ilovalar, bank kartalari emissiyasi va naqdsiz to'lovlar**

11 Manba: Kapitalbank, Hamkorbank, TBC Bank Uzbekistan, Anorbank, Agrobank, SQB, Asakabank va Xalq banki rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (2025).

infratuzilmasining rivojlanishi namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, kelgusida xizmatlar sifatini oshirish uchun sun'iy intellekt asosidagi mijozlarga xizmat ko'rsatish, Open Banking, biometrik identifikatsiya va ma'lumotlarga asoslangan shaxsiylashtirilgan bank mahsulotlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

CHAKANA BANK XIZMATLARI KO'RSATKICHLARINING TREND TAHLILI

Yillik kuzatuvlar sonining cheklanganligi sababli ko'p omilli regressiya modeli tuzishdan voz kechildi. 2021–2025-yillar bo'yicha mavjud ma'lumotlar dinamik qatorlar, mutlaq o'zgarish va o'sish sur'atlari asosida baholandi. Ushbu yondashuv kichik tanlanmada asossiz statistik xulosalar chiqarish xavfini kamaytiradi. 2021–2025-yillarda muomaladagi bank kartalari soni 27,1 mln donadan 68,2 mln donaga oshib, mutlaq o'sish 41,1 mln donani, umumiy o'sish esa 151,6 foizni tashkil etdi. POS-terminallar soni shu davrda 433 ming donadan 430 ming donaga kamayib, deyarli barqaror holatda qoldi. 2023–2025-yillarda POS orqali to'lovlar 254,7 trln so'mdan 460,3 trln so'mga yetib, 205,6 trln so'm yoki 80,7 foizga ko'paydi. Ko'rsatkichlarning birgalikdagi dinamikasi chakana bank xizmatlarining kengayishi infratuzilma obyektlari sonini mexanik ko'paytirishdan ko'ra, bank kartalari qamrovi va mavjud terminallardan foydalanish intensivligi bilan ko'proq bog'liq ekanini ko'rsatadi. Biroq mazkur natija sabab-oqibat bog'lanishi sifatida emas, tavsifiy tendensiya sifatida talqin qilinadi. Kelgusida oylik yoki choraklik ma'lumotlar mavjud bo'lganda kamida 20–60 ta kuzatuv asosida ekonometrik baholash o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

O'tkazilgan statistik, trend va ekonometrik tahlillar natijalari O'zbekiston tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishda raqamli infratuzilmani takomillashtirish, mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlarni kengaytirish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Tijorat banklarining raqamli rivojlanish strategiyasini mijozlarning moliyaviy ehtiyojlari va xulq-atvoriga asoslangan boshqaruv tamoyillari asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq. Mijozlarning tranzaksion faolligi va bank mahsulotlaridan foydalanish xususiyatlarini tahlil qilish orqali ularga moslashtirilgan xizmatlarni taklif etish bank xizmatlari sifatini oshirish va mijozlar sodiqligini kuchaytirishga xizmat qiladi.


Mobil bank ilovalarining funksional imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarur. Masofaviy kreditlash, omonatlarni boshqarish, investitsiya va sug'urta mahsulotlari, elektron hamyonlar hamda davlat xizmatlari bilan integratsiyani rivojlantirish bank xizmatlarining qulayligi va ommabopligini oshiradi.

POS-terminal infratuzilmasini rivojlantirishda terminallar sonini ko'paytirishdan ko'ra ularning foydalanish samaradorligini oshirishga e'tibor qaratish lozim. Tadqiqot natijalari mavjud terminallar orqali amalga oshirilayotgan to'lovlar hajmi jadal o'sayotganini ko'rsatdi. Shu sababli savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida naqdsiz hisob-kitoblarni rag'batlantirish hamda terminallarning samarali ishlashini ta'minlash muhim hisoblanadi. Banklar va moliyaviy texnologiya kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida Open Banking tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi. Bu yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish, xizmatlarni integratsiyalash va raqobat muhitini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Biometrik identifikatsiya, elektron KYC va masofaviy autentifikatsiya tizimlarini yanada takomillashtirish bank xizmatlaridan foydalanish jarayonini soddalashtiradi, mijozlarga xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartiradi hamda banklarning operatsion xarajatlarini kamaytiradi. Chakana bank xizmatlari samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda mijozlar qoniqishi, raqamli xizmatlardan foydalanish faolligi, mobil ilovalar funksionalligi, xizmatlarning uzluksizligi va raqamli tranzaksiyalar ulushi kabi sifat ko'rsatkichlarini KPI tizimiga kiritish maqsadga muvofiq.

Raqamli bank xizmatlari ko'lamining kengayishi bilan bir qatorda kiberxavfsizlik tizimini mustahkamlash va firibgarlikning oldini olishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur. Bu bank xizmatlarining ishonchligini oshirish va mijozlarning raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Chakana bank xizmatlari rivojlanishini baholashda bank kartalaridan foydalanish faolligi, bir POS-terminalga to'g'ri keladigan to'lovlar hajmi, raqamli operatsiyalar ulushi hamda masofaviy xizmatlardan foydalanish sur'atini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur indikatorlar bank infratuzilmasining miqdoriy ko'rsatkichlaridan ko'ra uning amaliy samaradorligini aniqroq ifodalaydi. Takliflarning amaliyotga joriy etilishi tijorat banklarida chakana bank xizmatlari sifatini oshirish, raqamli moliyaviy xizmatlarni kengaytirish, mijozlarga yo'naltirilgan bank mahsulotlarini rivojlantirish hamda banklarning raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Bank kartalari va POS-to'lovlar hajmining o'sish indekslari (2023 = 100)¹²

Diagramma 2023-yilni bazaviy davr sifatida qabul qilgan holda bank kartalari va POS-to'lovlar hajmining o'sish sur'atlarini qiyoslaydi. 2025-yilda bank kartalari indeksi 147,6 punktga, POS-to'lovlar indeksi esa 180,7 punktga yetgan. Bu POS orqali to'lovlar hajmi kartalar soniga nisbatan tezroq oshganini va mavjud to'lov infratuzilmasidan foydalanish intensivligi kuchayganini ko'rsatadi (4-jadval).

4-jadval

Chakana bank xizmatlari asosiy ko'rsatkichlarining o'sish natijalari¹³

Ko'rsatkich	Davr	Boshlang'ich qiymat	Yakuniy qiymat	O'sish, %
Muomaladagi bank kartalari, mln dona	2021–2025	27,1	68,2	151,6
POS-terminallar, ming dona	2021–2025	433	430	–0,7
POS orqali to'lovlar, trln so'm	2023–2025	254,7	460,3	80,7

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillarda muomaladagi bank kartalari soni 41,1 mln donaga yoki 151,6 foizga oshgan. POS-terminallar soni 0,7 foizga qisqargan bo'lsa-da, 2023–2025-yillarda ular orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 205,6 trln so'mga yoki 80,7 foizga ko'paygan. Mazkur natija chakana bank xizmatlarining rivojlanishi infratuzilma sonini kengaytirishdan ko'ra, mavjud kanallardan foydalanish intensivligi va raqamli to'lovlar faolligi bilan ko'proq belgilanayotganini ko'rsatadi.

ASOSIY ILMIY NATIJALAR

- 2021–2025-yillarda muomaladagi bank kartalari sonining 151,6 foizga oshgani aniqlandi;
- 2023–2025-yillarda POS-to'lovlar hajmi 80,7 foizga ko'payib, kartalar soniga nisbatan tezroq o'sgani asoslandi;
- POS-terminallar soni deyarli o'zgarmagan sharoitda to'lovlar hajmining keskin oshishi infratuzilmadan foydalanish intensivligi kuchayganini ko'rsatdi;
- ayrim tijorat banklarining raqamli xizmatlari yagona ekspert-ball mezonini asosida qiyoslandi;
- chakana xizmatlarni baholashda miqdoriy infratuzilma ko'rsatkichlari bilan birga foydalanish faolligi va raqamli operatsiyalar ulushini monitoring qilish taklif etildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston tijorat banklarida chakana bank xizmatlari so'nggi yillarda barqaror rivojlanayotganini ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, bank kartalari emissiyasining kengayishi, mobil banking xizmatlari ommalashuvi va naqdsiz to'lovlar hajmining ortishi chakana bank xizmatlari rivojlanishining asosiy omillari sifatida namoyon bo'ldi.

¹² Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Statistik tahlillar 2021–2025-yillar davomida muomaladagi bank kartalari soni hamda POS-terminallar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Bu holat aholining raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi ortib borayotganini hamda banklarning innovatsion rivojlanish strategiyasi ijobiy natija berayotganini tasdiqlaydi.

Trend tahlili bank kartalari soni va POS-to'lovlar hajmi yuqori sur'atlarda oshganini, POS-terminallar soni esa deyarli barqaror qolganini ko'rsatdi. Bu natija mavjud to'lov infratuzilmasidan foydalanish intensivligini oshirish chakana bank xizmatlari rivojlanishining muhim zaxirasi ekanini anglatadi.

Tadqiqotda chakana bank xizmatlari rivojlanishini bank kartalaridan foydalanish faolligi, bir POS-terminalga to'g'ri keladigan to'lov hajmi, raqamli operatsiyalar ulushi va masofaviy xizmatlardan foydalanish sur'ati orqali muntazam monitoring qilish yondashuvi taklif etildi. Mazkur indikatorlar infratuzilmaning miqdoriy ko'lamidan tashqari, undan foydalanish intensivligi va amaliy samaradorligini ham baholash imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot asosida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar tijorat banklarida raqamli xizmatlarni kengaytirish, Open Banking tamoyillarini joriy etish, mobil ilovalar funksionalligini oshirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish orqali chakana bank xizmatlarining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston bank tizimida chakana bank xizmatlarini rivojlantirish nafaqat tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish, balki moliyaviy inkluziyani kengaytirish, iqtisodiyotda naqdsiz hisob-kitoblar ulushini ko'paytirish va bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy. Washington, DC: World Bank, 2025.
2. Khera P., Ng S., Ogawa S., Sahay R. Is Digital Financial Inclusion Unlocking Growth? IMF Working Paper No. 2021/167. Washington, DC: IMF, 2021.
3. Cevik S. Promise (Un)kept? Fintech and Financial Inclusion. IMF Working Paper No. 2024/131. 2024. DOI: 10.5089/9798400279195.001.
4. Bank for International Settlements. Digital Payments and Financial Inclusion. Basel: BIS, 2023.
5. Committee on Payments and Market Infrastructures. Fast Payments: Enhancing the Speed and Availability of Retail Payments. Basel: BIS, 2024.
6. OECD. OECD Digital Economy Outlook 2024. Paris: OECD Publishing, 2024.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3342348?ONDATE=27.04.2023>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3593541>
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To'lov tizimi ko'rsatkichlari va bank kartalari, POS-terminallar hamda tranzaksiyalarga oid statistik ma'lumotlar, 2021-2025.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025-yil 1-dekabr holatiga muomaladagi bank kartalari, POS-terminallar, bankomatlar va POS-tranzaksiyalar to'g'risida ma'lumot. Toshkent, 2025.
13. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 13th ed. Pearson, 2022.
14. Sinkey J.F. Commercial Bank Financial Management in the Financial-Services Industry. 6th ed. Pearson, 2002.
15. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Levine R. Finance, Inequality and the Poor. Journal of Economic Growth. 2007. Vol. 12. P. 27-49. DOI: 10.1007/s10887-007-9010-6.
16. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Martinez Peria M.S. Banking Services for Everyone? Barriers to Bank Access and Use around the World. World Bank Economic Review. 2008. Vol. 22(3). P. 397-430. DOI: 10.1093/wber/lln020.
17. Berger A.N., Udell G.F. A More Complete Conceptual Framework for SME Finance. Journal of Banking & Finance. 2006. Vol. 30(11). P. 2945-2966. DOI: 10.1016/j.jbankfin.2006.05.008.
18. Levine R. Finance and Growth: Theory and Evidence. In: Handbook of Economic Growth. Vol. 1A. Elsevier, 2005. P. 865-934. DOI: 10.1016/S1574-0684(05)01012-9.
19. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S. The Global Findex Database 2021. Washington, DC: World Bank, 2022.
20. Gomber P., Koch J.A., Siering M. Digital Finance and FinTech: Current Research and Future Research Directions. Journal of Business Economics. 2017. Vol. 87. P. 537-580. DOI: 10.1007/s11573-017-0852-x.
21. Ozili P.K. Financial Inclusion and Fintech during COVID-19 Crisis: Policy Solutions. SSRN Electronic Journal. 2020. DOI: 10.2139/ssrn.3585662.
22. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. 732 b.



23. Mamadiyarov Z.A., Maxmudova M. va boshqalar. Bank ishi. Toshkent, 2021.

24. Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.П. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка. 3-е изд. Москва: Юрайт, 2016. 545 с.

25. Сплошнов С.В., Давыдова Н.Л. Банковский розничный бизнес. Минск: Вышэйшая школа, 2012. 304 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100